O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
OLMALIQ SHAHAR HOKIMI
QARORI

Olmaliq shahri, Amir Temur ko’chasi, 47

2022 - yil 26 - dekabr 425-10-147-Q/22 Olmaliq shahar hokimligi

Dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to’g’risida”gi Qonunning 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahar hududidagi dafn etish joylari (qabristonlar)ni saqlash va ulardan foydalanish qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Arxitektura va qurilish bo‘limi (Xoliqov), shahar sanitariya-epidemiologok osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi (Musayev), shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi (Aymatov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Raximov):

- dafn etish joylarini saqlash qoidalarning tegishli qabristonlarda bir xilda ijro etilishi;

- qoidalarda belgilangan normalar mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda doimiy targ‘ib qilib borilishini ta’minlasin.

4. Shahar hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Ro‘ziyeva),

ushbu qaror “Olmaliq hayoti” va “Алмалыкский рабочий” gazetalarida va veb-saytida joylashtirilsin va rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan

deb hisoblansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Z.Kenjayev zimmasiga yuklansin.

Olmaliq Shahar Hokimi **Q.Xamdamov**

Olmaliq shahar hokimining
2022 yil 26 dekabrdagi
425-10-147-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Shahar hududidagi dafn etish joylari (qabristonlar)ni saqlash va ulardan foydalanish qoidalari

1. Qabristonlar bevosita shahar hokimligi tasarrufida bo‘ladi, ularni zarur holatda saqlash va obodonlashtirish vazifasi shahar hokimligiga yuklanadi.

2. Qabristonlarni obodonlashtirish, obyektlarini saqlash va ulardan foydalanishga, dafn etish xizmatlari ko‘rsatishga doir bevosita faoliyat shahar hokimligi tomonidan ta’sis etiladigan shahar obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal va joriy ta’mirlash, ularni zarur holatda saqlash, mablag‘larni xarajatlarning alohida moddasi bo‘yicha ajratgan holda, mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Bunda go‘rkovlar va marosim xizmatlari ko‘rsatuvchi xodimlar ta’minoti shahar hokimligi tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar uchun aholidan tushadigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

4. Qabristonlarni saqlash va obodonlashtirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlaridan ham foydalaniladi.

5. Qabristonlarni obodonlashtirish fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ko‘magida hashar yo‘li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

6. Qabristonlar hududini obodonlashtirish elementlariga qabristonlar hududini to‘siq bilan o‘rash, dafn joylari, yashil o‘simliklar, o‘tish joylari, xiyobonlar, yo‘llar va yo‘lkalar, xo‘jalik hovlilari, ma’muriy binolar va yordamchi imoratlar, muhandislik inshootlari va boshqalar kiradi.

7. Qabristonlar hududi to‘siqlar bilan o‘raladi hamda o‘zaro yo‘llar va xiyobonlar bilan bo‘lingan, tartib raqamlari qo‘yilgan sektorlarga, uchastkalarga bo‘linadi.